
BOLAJONLAR QUVONCHI CHEKSIZ

Yurtimizda Yaponiya hukumatining “Kichik miqyosli ijtimoiy loyihalarga beg’araz yordam” dasturi doirasida grant amalga oshiriladi. 2019 yil 5 mart kuni Qo’shtepa tumanidagi 13 davlat maktabgacha ta’lim tashkilotiga 49. 644 AQSh dollari miqdorida grant mablag’i ajratilgan edi.









Yaqinda loyiha muallifi tuman maktabgacha ta'lim bo'limi mudiri I. Maxmudova O'zbekistondagi Yaponiya elchixonasining Iqtisodiy bo'limiga loyihaning muvaffaqiyatli yakuni haqida hisobot topshirdi.





Shuni ta'kidlash joizki, ajratilgan mablag'lar hisobiga maktabgacha ta'lim tashkiloti o'tgan yilning noyabr oyida qulay va zamonaviy jihozlar bilan jihozlangan. Fayz MFY hududidagi bolajonlar bu tuhfadani juda mamnun bo'ldilar. Yaratilgan sharoitdan nafaqat bolajonlar, xatto ularning ota-onalari ham mamnun.























2020-03-30 15:27:10